

**AHMAD A'ZAM ASARLARIDA RUHIYAT**

*Ma'rifat Qodirova Abdullayevna*

*SamDU mustasqil tadqiqotchisi*

**Калит сўзлар.** Рухият, услуб, бадиий образ,

**Ключевые слова.** Душевное состояние героев, метод, художественный образ.

**Keywords.** Spirit(psyche), style, artistic, image.

Adabiyot bevosita ham, bilvosita ham insonni tarbiyalaydi. Uning didi, dunyoqarashini, saviyasini, insonga, millatga, dunyoga, ezgulik va yovuzlikka bo'lgan munosabatini tarbiyalaydi. Shunday ekan, men Kafkani o'qisam, demak uning qarashlari menga bevosita "yuqadi", uning jamiyat va inson haqidagi xulosalari mening saviyamga, didimga ta'sir qiladi, ehtimol, shakllantirar ham. Kafkaning o'rniga haqiqiy iste'dod egasi bolgan xohlagan yozuvchini qo'yib, shunday deyishimiz mumkin.

Adabiyotning vazifasi ham shunda. Kimning asarini o'qimang, asarning vazifasi, agar u haqiqiy adabiyot namunasi bo'lsa, shunday. Masalan, Navoiy g'azallarini yod bilgan va hirgoyi qilib yurgan odamning ta'bi nozik bo'ladi, deyishadi adabiyotshunoslar. Navoiy faqat ta'bga emas, inson ruhiyatiga ham tarbiyasiga ham, dunyoqarashiga ham ta'sir qiladi. Ahmad A'zam ijodiga nazar tashlasak ham bu holat yaqqol sezilarlidir. Uning asarlarida evropa adabiyotiga xos xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. Inson ichki ruhiyati, kechinmalari yaqqol aks etadi.

Ahmad A'zam poetik uslubining shakllanishida yapon yozuvchisi Kabo Abe ijodining ta'siri katta. Uning "Qumdagi xotin", "Yashik odam" romanlaridagi inson hayoti va faoliyatiga noan'anaviy yondashuvi bilan ko'plab kitobxonlarning e'tiborini qozongan. Ahmad A'zam, Kabo Abega o'xshab katta kichik barcha asarlarida kechinmaning harakatini, hilatini psixologik tadrijini kuzatadi. Ahmad

A'zam asarlarida voqea uncha muhim o'rin tutmaydi. Uning ijodida an'anaviy syujetlilikni ko'rmaymiz. Yozuvchi uslubining noana'naviyligi shundaki, u ko'pincha sog'lom aqlga bo'y beravermaydigan, inson ko'nglining inja injiqliklarini, ruhiy holat va kechinmaning tub asoslarini anglashga va tinglashga e'tibor qaratadi. Shunday ekan, uslub-yozuvchining voqelik va insonni idrok qilishi, ularni qalbidagi haqiqatni kashf etishi va uni so'z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu vazifalarni individual (“o'ziga xos”) tarzda yaratish san'atidir. “Uslub doim yozuvchi shoirning butun borligidan kelib chiqadi va har bir yaratgan asarida ana shu o'ziga xos olamning hayotbaxsh nurini - insoniylashgan tuyg'ularini tiriltiradi, ko'pga ulashadi, ezgu tuyg'ular tarbiyachisi vazifasini o'taydi.” Uning “Ro'yo yohud Gulistonga safar” romani yozuvchining xotiralari bilan boshlanib, boshqa bir olamga tushib qolishi yozuvchi uslubining kamalakday tovlanib, jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy muammolari ustida bosh qotirishi ularni hal etish masalalarini izlab topishga bo'lgan harakati, voqea asosida emas o'y-fikr mushohada, mulohaza hayot doirasiga kechishi hayotbaxsh xususiyatlaridandir.

Mazkur romanning yaratilishida absurt adabiyot vakillari F.Kafka, A.Kamyu ijodining hayotbaxsh ta'sirini ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu yo'nalinsh orqali bugungi davr adabiyotshunosligida yangi tushuncha, postmodern atamasi kirib keldi. Ushbu atama XX asrning 70-yillarida amerikalik teolog X.Kons Lotin Amerikasida din muammolariga bag'ishlangan ilmiy ishlarida “postmodern tiologiya” atamasini qo'llab, unga diniy ma'no yukladi. “Postmodernizm ” atamasi Ch.Jenksning “Postmodern Memorchilik tili ” kitobidan keyin juda keng yoyildi. Muallif asarida anchadan buyon turli ma'nolarga qo'llanib kelinayotgan bu atamaga tamomila o'zgacha mazmun yuklaydi. U postmodernizm me'morchilik tarixida yangi davr boshlanganidan dalolat ekanini, endilikda arxitektura sohasida oldingi usullardan foydalanish, o'rni kelsa, avvalgilardan nusxa ko'chirish, ilgaridan mavjud binolarga juziy o'zgarishlar bilan yangicha qiyofa berish ham



ijodkorlik tarzida qabul qilinaverishini qayd etadi. Bunday yondashuvlar me'morchilik balki, 70- yillardan e'tiboran, barcha san'at va adbiyotdagi yonalishlarda qo'llanila boshlandi. Lotarning "Postmodern holat :bilim haqida ma'ruza" kitobi bosilib chiqqan 1979-yildan boshlab, bu atama falsafiy ma'noda ham ishlatiladigan bo'ldi.

Xuddi shu uslubda Ahmad A'zam o'zbek adabiyotida ham sezilarli ijod qildi. Postmodernizm bugungi ijodkor dardi va iztiroblarining ko'ngil, tafakkur, qog'oz, bino, kino va sahnada glabballashgan sivilizatsiyaga uyg'un holatdagi ifodasidir. Umuman olganda, postmodern san'at asarlari dunyoning betartib (xaos)ligi, boshboshdoqligi, o'tkinchi va anglamsizligidan iborat postmodern manzarisini berish uchun ko'proq tasavvur, tush, ongsizlik singari xolatlarini o'z tasvir ob'yekti va vositasiga aylantiradi. Shunday ekan, Ahmad A'zam ijodida aynan ana shunday uslubni kuzatishimiz mumkin. Uning "Ro'yo yohud Gulistonga safar" romani bunga misol bo'la oladi. Bu asarda :

“Vaqt biz bilganimizdan ko'ra bepayon, u ichkarisiga ham cheksiz. Jizzaxga yol tortib, haligi joyda uch-to'rt soniya orasida G'ulistonga o'tib, xizmatchi g'uliya bilan dildorlashib, g'uliylarning uyasiga o'zim bilmay cho'p suqib qo'yib, yana o'sha yo'lga qaytganman yo ularning o'zi keraksizligim uchun meni chiqarib yuborgan va yana shu, bermalol kelaverganman. Lekin unda spidometrning ko'rsatgichi nega bunday, bir-ikki soniya ichida qizning bo'yida bolib qolishi ham aqlga sig'maydi-ku?”

Ushbu jumlada ko'rinadiki asarda ko'pincha o'ng kelib qolgan so'zdan foydalanish, faqat ayni vaziyat uchun bir martagina qo'l keladigan badiiy holat paydo qilishiga, ya'ni bir martalilik matn yaratishga qaratiladi. Bunday adabiy ijod ko'proq badiiy nutqdagi so'z o'yinlarida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari asarda tush, hayolotga tushish holatlari ko'zga ko'rinarli:

“Hammasi o’zimning tushim, shundan o’ngimdagi vijdonim qiynoqda emas, tushinib=ming ichida yana tush ko’rib G’ulistonga o’tib qolganman, g’uliya qizni sevganman, yana boshdagi tushimga qaytib, uning davomini ko’rib yashayapman,. Butun umrim uzundan uzoq tush, o’zim-o’zimni tush ko’rib yuribman.Unda bu yoqda oilam, bola-chaqam, qarindosh-urug’...bular kimning tushi?”

Uslub yozuvchining o’z davri sotsial hodisalarga aktiv munosabatining maxsuli bo’lib ijodkorni, uning boshqa yozuvchilardan farqini ko’rsatuvchi bosh omildir. Yozuvchi qancha talandli bo’lsa, uning uslubi ham shu qadar yorqin, u asarlarida kechinmaning harakatini, holatini psixologik tadrijini kuzatadi. Ahmad A’zam asarlarida voqea uncha muhim o’rin tutmaydi. Uning ijodida an’anaviy syujetlilikni ko’rmaymiz. Yozuvchi uslubining noana’naviyligi shundaki, u ko’pincha sog’lom aqlga bo’y beravermaydigan, inson ko’nglining inja injiqliklarini, ruhiy holat va kechinmaning tub asoslarini anglashga va tinglashga e’tibor qaratadi. Bunday uslub bugungi o’zbek adabiyotidagi yangicha yo’nalish postmodern uslubining yaralishiga olib keldi. Shunday ekan, uslub-yozuvchining voqelik va insonni idrok qilishi, ularni qalbidagi haqiqatni kashf etishi va uni so’z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu vazifalarni individual (“o’ziga xos”) tarzda yaratish san’atidir.

### Adabiyotlar

- 1. [Аҳмад Аъзам. Гул кўтариб кетаётган эркак \(новелла\)](#)
- 2. [Аҳмад Аъзам. Рўё ёхуд Гулистонга сафар \(роман\)](#)